



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayev vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyev vich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI VA UNING BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI	18
Nazarov G'ayrat Xayrullayevich	
YUKLARNI TASHISHDA ZARURIY TRANSPORT XUJJATLARI.....	22
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARNI SAMARALI QO'LLASH YO'NALISHLARI.....	27
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
GLOBAL BEQARORLIK SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI	32
Saidnazarova Odinabonu Saidolim qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ УЧЕТА И АУДИТА ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ.....	37
Пулатова Мадина Бейсеновна	
Табаев Азамат Зарипбаевич	
MAJBURIYATMI YOKI MAJBURIY RISK? MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR KONSEPTUAL ASOSLARINING IQTISODIY TABIATI VA ZAMONAVIY TALQINLARI.....	42
Palvanov Xusniddin Bekimmatovich	
ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В СИСТЕМЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	47
Пу Кебин	
TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI BARQARORLIK NUQTAYI NAZARIDAN O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	51
Xodjaniyazov Elbek Sardorovich	
VILOYAT SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI KO'P OMILLI EMPIRIK MODELLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH (Qashqadaryo viloyati misolida)	57
Avazova Nafisa Namazovna	
SANOAT KORXONALARI SHOVQINI VA ATMOSFERA CHIQINDILARINING TURAR-JOY HUDUDLARI EKOLOGIYASIGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH CHORALARI	61
Saparova Shohida Abduvaliyevna	
SANOAT SHOVQINI VA ATMOSFERA IFLOSLANISHINING SHAHAR TURAR JOY HUDUDLARI VA EKOLOGIYASIGA TASIRINI O'RGANISH.....	65
Shaxyusupova Nilufar Erkin qizi	
BARQAROR SHAHAR RIVOJLANISHIDA SANOAT OQOVA SUVLARINI BIOLOGIK TOZALASH TEXNOLOGIYALARINING ROLI.....	69
Tursunova Aziza Asrorovna	
SHAHAR EKOLOGIK MUHITIGA SANOAT KORXONALARINING TA'SIRINI BAHOLASH.....	75
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	78
Xusanova Zulfiya Raxmatullayevna	



O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI

Xusanova Zulfiya Raxmatullayevna
Andijon davlat universiteti
“Menejment” kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda ayollar tadbirkorligining bugungi holati, rivojlanish tendensiyalari va iqtisodiyotdagi o'rni tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda ayollar boshqaruvidagi korxonalar sonining o'sishi, ularning sohalar va hududlar kesimidagi taqsimoti, shuningdek, sof foyda dinamikasi Pareto usuli yordamida o'rganilgan. Shuningdek, maqolada ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, xususan, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan imtiyozli kreditlar va xalqaro tashabbuslarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: ayollar tadbirkorligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, imtiyozli kreditlash, investitsion jozibadorlik, gender tengligi, Pareto tahlili, xalqaro moliya institutlari, bandlik va daromad.

Abstract: This article systematically analyzes the current state, development trends, and role of women-owned businesses in the economy of Uzbekistan. The study examines the growth in the number of women-led enterprises, their distribution by sectors and regions, as well as the dynamics of net profit using the Pareto method. The article also highlights the organizational and economic mechanisms for supporting women-owned businesses, particularly the importance of preferential loans provided by commercial banks and international initiatives.

Keywords: women-owned businesses, small business and private enterprises, organizational and economic mechanism, preferential lending, investment attractiveness, gender equality, Pareto analysis, international financial institutions, employment and income.

Аннотация: В данной статье системно проанализированы современное состояние женского предпринимательства в Узбекистане, тенденции его развития и роль в экономике. В исследовании с использованием метода Парето изучены рост количества предприятий, управляемых женщинами, их распределение по отраслям и регионам, а также динамика чистой прибыли. Кроме того, в статье освещены организационно-экономические механизмы поддержки женского предпринимательства, в частности значение льготных кредитов, предоставляемых коммерческими банками, и международных инициатив.

Ключевые слова: бизнес, принадлежащий женщинам, малый бизнес и частное предпринимательство, организационно-экономический механизм, льготное кредитование, инвестиционная привлекательность, гендерное равенство, анализ Парето, международные финансовые институты, занятость и доходы.

KIRISH

Jahonning ko'pgina mamlakatlarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham tadbirkorlik sohasi kundun-kunga rivojlanib, iqtisodiyotning asosiy drayver sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda mamlakatda barcha sohalar singari tadbirkorlik sohasida ham qator islohotlarning amalga oshirilishi sohada daromadlarning oshishi va yangi ish o'rinlarining yaratilishiga turtki bo'ldi. Bugungi kunda mamlakatda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan nafaqat erkaklarning soni, balki ayollarning soni ham ortib borayotgani mamlakatda ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy mavqeyi yaxshilanayotganini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlar tadqiqot ishlari olib borishgan. Xususan, H. Madhobi o'zining tadqiqot ishlarida ayollar tadbirkorligini tashkil etishda biznes loyihani aniqlashtirish, uni moliyalashtirish masalalarini tadqiq etgan. Shuningdek, ushbu olim ayollar tadbirkorligini rivojlantirish orqali jamiyat taraqqiyotining barqaror rivojlanishini ham izohlab bergan [1]. Angliyalik iqtisodchi Klare Brindley o'zining tadqiqot ishlarida tadbirkorlik faoliyatida ayollar uchun imkoniyat va to'siqlarga alohida e'tibor qaratgan. Ushbu olim tadbirkorlikda jinsga xos iqtisodiy munosabatlar, qaror qabul qilishlar, moliyaviy risklar bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Ushbu olim fikricha, "kichik biznesni tashkil etish va uni yuritishda gender bilan bog'liq tafovutlar unchalik sezilarli emas, balki yangi tadbirkorlikning rivojlanishi ko'proq biznes reja va moliyaviy ko'mak hamda boshqa omillarga bog'liq" [2] deya ta'kidlaydi.



Shvetsiyalik iqtisodchi H. Ahl tadqiqotlarida erkak va ayol tadbirkorlarning tadbirkorlik faoliyatini tahlil etadi. U o'zining tadqiqotlari natijasida ayol tadbirkorlarning ko'p holatlarda kichikroq biznes turini tanlashga moyilligining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Bunda ayollarni ko'proq tadbirkorlik sohasiga jalb etish, ularga tashkiliy-iqtisodiy masalalarda ko'maklashish bo'yicha taklif va yechimlar ishlab chiqqan [3].

Nobel mukofoti sovrindori G.S. Bekker ayollar tadbirkorligi bo'yicha ham bir qancha yondashuvlarni ilgari surgan. Ushbu olim o'zining tadqiqot ishlarida uy xo'jaliklarida mehnat taqsimoti, xo'jalikning ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan vazifalari hamda ushbu jarayonlarda ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan masalalar yechimi bo'yicha tadqiqot olib borgan [4].

MDH mamlakatlaridan ham bir qancha olimlar ayollar tadbirkorligi va u bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar bo'yicha tadqiqot ishlari olib borishgan. Xususan, iqtisodchi L.V. Babayevaning tadqiqot natijalariga ko'ra, tadbirkorlik faoliyatida ayollar barqaror biznes yuritishda va xodimlar bilan bo'ladigan boshqaruv munosabatlarida har doim faoldirlar va xodimlarni malaka talabidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishga jalb etadilar [5].

A.V. Alimpiyeva tomonidan ayollarning biznes sohasidagi xatti-harakatlari o'rganilib, bu borada ayollarning tadbirkorlik faoliyatida o'ziga xos motivatsion boshqaruv usullari, innovatsion g'oyalarga bo'lgan qarashlari tahlil etilgan. Shuningdek, ushbu olim ayollar tadbirkorligining oilaviy munosabatlarga ta'sirini ham o'rgangan [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu maqolada ayollar tadbirkorligi bo'yicha tadqiqotlarni olib borgan iqtisodchi olimlarning maqolalari o'rganilgan. Soha vakillarining fikrlarini mulohaza qilish asosida tizimli tahlil va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillarga ko'ra, mamlakatda 2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 18,9 mln.dan ortiq xotin-qizlar istiqomat qilmoqda. Bu ko'rsatkich jami aholining deyarli yarmini tashkil etib, jamiyatda ayollarning rolining qanchalik ahamiyatli ekanligini, ularning iqtisodiy jarayonlarda ishtirokini kuchaytirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Yangi iqtisodiy islohotlar sharoitida ayollar tadbirkorligi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. "2026-yilda respublikada jami 474899 ta korxon va tashkilotlar faoliyat yuritayotgan bo'lsa, shundan 403767 tasini kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etmoqda" [8]. Kichik tadbirkorlik subyektlari mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etib, jami yalpi ichki mahsulot hajmining 49,7 foizini tashkil qilmoqda.

Keltirilgan 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, yillar davomida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi ulushi o'zgaruvchan bo'lgan. 2010–2017-yillar oralig'ida bu ko'rsatkich doimiy o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2017-yilda umumiy YaIMning 67,4 foizini tashkil etgan hamda shu davrdan so'ng doimiy pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, 2025-yilda umumiy YaIMning 49,7 foizini tashkil etdi (1-rasm).



**1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIM dagi ulushi¹ (foizda, yillar kesimida)**

“Mikro, kichik va oʻrta tadbirkorlik Oʻzbekiston iqtisodiyotining ajralmas qismi boʻlib, roʻyxatga olingan barcha tadbirkorlik subyektlarining qariyb 89 foizini tashkil etadi. 2025-yil 1-yanvar holatiga koʻra, Oʻzbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va mikrofirmalarning umumiy soni 358 mingdan ortiqni tashkil etdi. 2024-yilda respublikada aholining 5,2 mln.ga yaqin qismi tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullangan boʻlib, shundan 2,1 mln. nafarini ayollar tashkil qilgan, bu esa mamlakat iqtisodiyotida ayollarning qanchalik muhim rol oʻynashini taʼkidlaydi” [9].

Ayollar tadbirkorligini qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashuvi natijasida xotin-qizlar boshqaruvidagi tadbirkorlik subyektlarining soni soʻnggi yillarda davomli oʻsib bormoqda. Xususan, amalga oshirilgan tahlil natijalariga koʻra, 2025-yilning 1-yanvar holatiga koʻra mamlakatda ayollar tomonidan tashkil etilgan va boshqariladigan 43,860 ta tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritmoqda va bu koʻrsatkich oldingi yilning mos davriga nisbatan 2,611 birlikka yoki 6,3 foizga oshgan. Hududlar kesimida esa eng koʻp tadbirkor ayollar Toshkent shahrida faoliyat koʻrsatib, ular boshchiligidagi tadbirkorlik subyektlari soni 12,814 tani tashkil etmoqda. Eng past koʻrsatkich esa Andijon va Namangan viloyatlariga toʻgʻri kelib, mos ravishda 1227 va 1130 tani tashkil etmoqda (1-jadval).

1-jadval
Oʻzbekiston Respublikasi va viloyatlarda ayollar boshchiligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (yillar kesimida, sonda)² [10]

Hudud nomi	Yillar	2015	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Oʻzbekiston Respublikasi		30184	35912	36428	36472	39078	41249	43860
Andijon		851	1012	1021	1027	1098	1158	1227
Buxoro		1699	2013	2034	2050	2212	2168	2434
Fargʻona		1410	1686	1695	1700	1806	1976	2035
Jizzax		954	1121	1138	1150	1238	1166	1366
Namangan		856	1018	1027	1030	1111	1094	1130
Navoiy		3204	3802	3845	3866	2188	1953	2025
Qashqadaryo		1402	1664	1684	1690	1809	1796	1879
Qoraqalpogʻiston Respublikasi		2018	2390	2417	2430	2593	3202	2866
Samarqand		2060	2439	2466	2475	3289	3723	3905
Sirdaryo		894	1062	1079	1090	1180	1198	1252
Surxandaryo		1753	2087	2108	2120	2290	2120	2656
Toshkent sh.		8045	9558	9703	9764	10906	12055	12814
Toshkent vil.		3925	4662	4720	4760	4995	5305	5598
Xorazm		1815	2159	2185	2200	2363	2335	2673

Yuqorida keltirilgan 1-jadval maʼlumotlariga asosan mamlakatda 2015-yilda 30184 ta tadbirkorlik subyektlari ayollar tomonidan boshqarilgan boʻlsa, 2022-yilga kelib 36472 taga yetgan hamda bu koʻrsatkich doimiy oʻsish tendensiyasini qayd etib, 2025-yilda 43860 tani tashkil etgan va yillik oʻrtacha 6,5–6,8 foiz oʻsishni qayd etgan. Ayniqsa, Toshkent shahri va viloyati hamda Samarqand viloyati ayollar tadbirkorligi boʻyicha boshqa hududlarga qaraganda anchagina yuqori oʻsishni qayd etgan boʻlsa, Navoiy viloyatida esa tahlil qilingan dastlabki davrga nisbatan 2025-yilda pasayish kuzatilgan. Andijon viloyatida garchi ayollar tadbirkorligi subyektlari soni nisbatan pastroq boʻlsa-da, ammo yillar davomida doimiy oʻsish tendensiyasiga ega boʻlib, 2025-yilda 1227 tani tashkil etgan.

Soʻnggi yillarda mamlakatda xotin-qizlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, ularning har bir sohada ilmiy salohiyatini oshirishga va huquqlarini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida bugungi


1 Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi.

2 Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi.



kunda ayollar mamlakatning barcha iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida faoliyat yuritmoqda. Xususan, Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, "2024–2025-o'quv yili boshida O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim muassasalarida 49,6 ming o'qituvchi (o'rindoshlarsiz) mehnat faoliyatini amalga oshirgan va ularning 22,9 ming nafari yoki 46,2 foizini ayollar tashkil etganligi" [11] mamlakatda qanchalik gender tengligiga e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, xotin-qizlarning tibbiyot sohasida ham ulushi ortib bormoqda. "2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar soni 107,5 ming nafarni tashkil etgan, shundan 50,1 ming nafarini yoki 46,6 foizini ayollar tashkil etgan" [12]. Bu kabi jamiyatning turli xil sohalarida faol ishtirok etishi ayollarga qo'shimcha moliyaviy mablag'lar imkoniyatini yaratib, o'zlarining tadbirkorlik faoliyatlarini boshlashlariga zamin yaratadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil natijalari ko'rsatishicha, mamlakatdagi tadbirkor xotin-qizlarning eng ko'pi xizmatlar sohasida tadbirkorlik faoliyatlarini olib bormoqda. 2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, ayol tadbirkorlarning 17239 nafari xizmatlar sohasida, 17161 nafari savdo sohasida, 5464 nafari sanoatda va 3996 nafari esa boshqa sohalarda faoliyat yuritmoqda. Mamlakatda so'nggi yillarda xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi ayollarni ham bu sohaga keng jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etib, 2015-yilda xizmat ko'rsatish sohasida 6384 nafar ayollar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilda 10057 nafarni hamda 2025-yilda esa 17239 nafarni tashkil etgan. Savdo sohasida ham xotin-qizlar doimiy ravishda faol ishtirok etib kelayotganini ko'rish mumkin. 2015-yilda 10972 nafar xotin-qizlar savdo sohasida faoliyat yuritgan bo'lsa, 2020-yilga kelib bu ko'rsatkich 2919 nafarga oshgan holda 13891 nafarga yetgan hamda 2025-yilda esa 17161 nafarni tashkil etgan (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida ayollar boshqaruvidagi tadbirkorlik subyektlari soni³ (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yillar kesimida) [13]


Garchi sanoat sohasi ham biroz og'ir mehnat hisoblansa-da, bu sohada ham ayollar doimiy faoliyat yuritib kelmoqda. Sanoat sohasidagi tadbirkor ayollar 2015-yilda 4287 nafarni, 2022-yilda esa 5543 nafarni tashkil etgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich 2025-yilda 79 nafarga pasayib, 5464 nafarni tashkil etgan. Bu pasayish sanoat sohasida ish jarayonlarini tashkil etish va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish jarayonlari nisbatan murakkabroqligi bilan bog'lanadi. Iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham ayollar o'zlarining tadbirkorlik faoliyatlari bilan shug'ullanib kelmoqda. Boshqa tarmoqlarda faoliyat ko'rsatayotgan ayollar nisbatan kam bo'lsa-da, ammo ular mamlakatning rivojlanishida ma'lum darajada o'zlarining hissalarini qo'shmoqda.

Ayollar tashkil etgan va boshqarayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, xususan, ularga bizneslarini boshlashlari uchun moliyalashtirish manbalarini topishga ko'maklashish, tadbirkorlik sohasida asosiy bilim va ko'nikmalarni berish hamda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarni sotish uchun bozorlarni topishga ko'maklashish natijasida ayollarning tadbirkorlik faoliyatlaridagi daromadlari sezilarli darajada oshmoqda. Jumladan, xotin-qizlar boshqaradigan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarni sotishdan tushgan sof foyda 2015-yilda 9,4 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilda 22,6 trln. so'mni qayd etib, oldingi yil bilan solishtirganda qariyb 7 trln. so'mga ko'paygan.

3 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.




2025-yilda esa 47,7 trln. soʻmni tashkil etgan va bu koʻrsatkich 2024-yilning mos davri bilan solishtirganda 10,1 trln. soʻmga koʻproq boʻlgan (3-rasm).



3-rasm. Ayol rahbarlar boshqaruvidagi korxonalarining sof daromadi⁴ (trln. soʻmda) [14]

Tadqiqot ishida 2015–2025-yillar oraligʻida tadbirkor ayollarning sof foydasi dinamikasini tahlil qilish maqsadida Pareto usuli amalga oshirildi. Mazkur usul orqali oʻrganilgan davr mobaynida umumiy natijaga eng katta hissa qoʻshayotgan davrlarni aniqlash imkoni mavjud boʻladi va sohadagi yutuq hamda kamchiliklarni aniqlashga yordamlashadi. Pareto diagrammasi orqali amalga oshirilgan tahlil natijalariga koʻra, ayollar tomonidan boshqariladigan korxonalarining umumiy daromadining 80 foizi 2019-yildan keyingi davrga toʻgʻri kelmoqda. Bu esa soʻnggi yillarda mamlakatda ayollar tadbirkorligiga eʼtiborning oshayotgani va bu sohada tadbirkor xotin-qizlarning sof daromadi sezilarli darajada oshayotganini koʻrsatadi (4-rasm).



4-rasm. Ayollar tomonidan boshqarilayotgan korxonalarining sof daromadining Pareto diagrammasi orqali tahlili⁵ (trln. soʻmda) [15]

4-rasm maʼlumotlariga koʻra, 2025-yilda soʻnggi oʻn yillikning eng yuqori natijasi qayd etilib, shu yili soʻnggi oʻn yillikdagi umumiy tadbirkor ayollar qayd etgan sof daromadning 21,3 foizi, 2024-yilda esa 16,8 foizi yaratilgan. Yuqoridagi natijalardan koʻrinib turibdiki, soʻnggi yillarda mamlakatda barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlashda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish ustuvor yoʻnalishlardan biriga aylangan. Bu jarayonda ayollar tadbirkorligini qoʻllab-quvvatlash, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish alohida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Oʻzbekiston xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb etish, ularni qoʻllab-quvvatlash borasidagi chora-tadbirlarni tizimlashtirish maqsadida We-Finance Code xalqaro tashabbusiga qoʻshildi. Mazkur tashabbus doirasida Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki nazorati ostida Milliy Koalitsiya tashkil etilgan. Ushbu Koalitsiya 19 ta aʼzoni oʻzaro birlashtirib, ularning asosiy yoʻnalishlari sifatida ayollar uchun moslashtirilgan

4 Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi.

5 Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi.



moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish, moliyaviy va nomoliyaviy xizmatlarni kengaytirish hisoblanadi. Bu kabi qator islohotlar natijasida bugungi kunda mamlakatda ayollar tadbirkorligini moliyalashtirish bo'yicha tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Jumladan, "ayollar biznesini moliyalashtirish hajmi 2020–2025-yillarda 4–9 trln. so'mdan 22,7 trln. so'mga oshgan. Shuningdek, birgina 2025-yilning o'zida Milliy Koalitsiya tomonidan tadbirkor xotin-qizlarga 4,1 trln. so'm miqdoridagi moliyalashtirish manbalari ajratildi hamda "Dilbar", "Ayol Tadbirkor" kabi maxsus foizsiz va imtiyozli kredit mahsulotlari joriy etildi [16]".

Tahlillarga ko'ra, 2025-yilning dastlabki yarmida respublikada faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari tomonidan 11,4 trln. so'm miqdoridagi 261308 ta kreditlar ayollar tadbirkorligiga yo'naltirilgan. Mazkur davrda mikro, kichik va o'rta biznesga jami 63,6 trln. so'm ajratilgan bo'lib, shuning 19 foizi tadbirkor xotin-qizlarga ajratilgan. Hududlar kesimida tahlil natijalari amalga oshirilganda, Toshkent shahri bo'yicha 1,9 trln. so'm, Toshkent viloyati bo'yicha 1,2 trln. so'm va Qashqadaryo viloyati bo'yicha esa 956 mlrd. so'm ayollar tadbirkorligiga yo'naltirilgan. Ushbu 3 ta hudud qolgan hududlarga qaraganda tadbirkor ayollarga ko'proq kredit ajratgan (2-jadval).

2-jadval
2025-yilning birinchi yarmida Tijorat banklari tomonidan ayollar tadbirkorligiga ajratilgan kreditlar miqdori va soni⁶ (mlrd.so'mda)

T/r	Bank nomi	Ayollar tadbirkorligiga ajratilgan kreditlar							
		Jami ajratilgan kreditlar		mikro			kichik		o'rta
		soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
Jami		261308	11419,0	109450	3572,2	151461	7055,7	397	791,1
1	Milliy bank	8260	460,7	326	52,1	7838	147,3	96	261,4
2	Xalq banki	75014	1932,2	58679	997,4	16325	914,3	10	20,5
3	Agrobank	44651	1926,6	11251	657,8	33376	1247,6	24	21,1
4	Mikrokreditbank	62474	1623,4	35494	652,4	26967	953,4	13	17,6
5	O'zsanoatqurilishbank	18509	794,2	414	161,6	18078	603,5	17	29,1
6	Asaka bank	10696	609,6	254	28,1	10422	539,2	20	42,2
7	Ipoteka bank	78	35,8	19	3,0	50	18,2	9	14,6
8	Bisnesni rivojlantirish banki	16208	756,2	828	106,0	15375	632,2	5	18,0
9	Turon bank	6978	271,6	207	30,6	6769	176,1	2	64,9
10	Aloqa bank	7571	340,6	286	54,6	7283	285,0	2	0,9
11	Ipak yo'li bank	1517	657,3	138	261,1	1350	370,6	29	25,6
12	Hamkor bank	2738	524,4	632	144,1	2069	307,2	37	73,1
13	Infin bank	802	77,2	63	17,9	735	49,2	4	10,1
14	Asia alliance bank	387	49,7	27	7,0	353	39,6	7	3,1
15	Boshqa banklar	5425	1359,5	832	398,4	4471	772,4	122	188,7

Tijorat banklari orasida Xalq banki, Agrobank va Mikrokreditbank ayollar tadbirkorligiga eng ko'p kreditlarni yo'naltirgan. 2025-yilning birinchi yarmida ushbu 3 ta bank tomonidan mos ravishda 75014 ta, 44651 ta va 62474 ta kreditlar tadbirkor xotin-qizlarga ajratilgan va ularning miqdori esa mos ravishda 1932,2 mlrd. so'm, 1926,6 mlrd. so'm va 1623,4 mlrd. so'mni tashkil etgan.

6 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



Shuningdek, O'zsanoatqurilishbank, Asaka bank va Biznesni rivojlantirish banklari ham tadbirkor ayollarga kreditlar ajratishda faol ishtirok etganini qayd etish joiz. Jumladan, ushbu 3 ta bank tomonidan jami 45413 ta kredit tadbirkorlik sohasidagi xotin-qizlarga ajratilgani bugungi kunda moliyaviy institutlarning ham ayollar tadbirkorligiga e'tibori ortib borayotganini ko'rsatadi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, mamlakatdagi tijorat banklari ayollarni ish bilan ta'minlashda ham faol ishtirok etib, xotin-qizlarga o'zlarining qobiliyati va sharoitidan kelib chiqqan holda ish topishlariga ko'maklashmoqda. Jumladan, O'zmilliybank 200 ming, O'zsanoatqurilishbank 160 ming, Mikrokreditbank 160 ming, Turonbank 150 ming, Xalq banki 150 ming, Agrobank 144 ming, Biznesni rivojlantirish banki 94 ming, Asakabank 82 ming, Aloqabank 58 ming nafar xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashishi belgilangan. Bu kabi loyihalarning olib borilishi natijasida nafaqat ayollarning tadbirkorlik jarayonlarini moliyalashtirish masalalari ijobiy hal etilmoqda, balki ularning moliyaviy savodxonlik darajalari ham mutanosib ravishda oshib bormoqda.

Mamlakatning bugungi kundagi investitsion siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri ayollar tadbirkorligi hisoblanadi. So'nggi yillardagi tadbirkor ayollarning daromadi oshishi va ularga berilayotgan imkoniyatlarning yuqoriligi sohani yanada investitsion jozibador qilmoqda. Xotin-qizlarning moliyaviy savodxonligining oshishi ularga turli xil investitsion loyihalarni ishlab chiqish, risklilik holatini baholash, foydani hisoblab chiqish imkoniyatlarini bermoqda. Xususan, ayollar o'z tadbirkorlik faoliyatlariga investitsiyalarni jalb etish uchun investitsion loyihalarni shakllantirishda iqtisodiy, texnik, ekologik va boshqa turdagi tahlillarni amalga oshirishi va aniq maqsadlarni belgilashi zarurdir. Bu kabi investitsion loyihalar sonining ortib borishi sohaga jalb etilayotgan investitsiya hajmining ham ortib borishiga sabab bo'lmoqda.

Tahlil natijalari ko'rsatishicha, respublikada "2022-yilda ayollar boshchiligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 3824,0 mlrd. so'm miqdoridagi investitsiyalar o'zlashtirilgan. Bu ko'rsatkich 2021-yilning mos davriga nisbatan 824,6 mlrd. so'mga ko'p bo'lgan" [12].

Tadbirkorlik yo'nalishlariga jalb qilingan investitsiyalar barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Tadbirkor xotin-qizlarning faoliyat jarayonlariga investitsiyalar hajmining ortayotgani mamlakatda inklyuziv iqtisodiyot rivojlanayotganini ko'rsatadi. Sohaga jalb etilayotgan investitsiyalar o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, birgina 2021-yilda pasayish kuzatilgan. 2021-yilda 2975,4 mlrd. so'mni tashkil etgan hamda bu ko'rsatkichni o'tgan davr bilan solishtirganda 2192,4 mlrd. so'mga kamroq bo'lgan. 2020–2025-yillar oralig'ida tadbirkor xotin-qizlarga yo'naltirilgan investitsiya hajmi sezilarli darajada oshgan bo'lib, dastlabki davrga nisbatan 2025-yilga kelib 4629,2 mlrd. so'mga ko'paygan [13].

Ushbu ko'rsatkichlar tadbirkor ayollarning moliyaviy imkoniyatlardan foydalanishi ko'payotgani hamda davlat tomonidan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning takomillashayotgani bilan izohlanadi.

O'zbekistonda xotin-qizlarning mehnat bozoriga jalb etilishi boshqa rivojlangan yoki daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlar bilan solishtirganda ancha pastligi aniqlandi. Bu esa mamlakatda tug'ilishning yuqori darajada va umr ko'rish darajasining ortib borayotgani bilan izohlanadi.

"2023-yilda 961962 nafar tug'ilish qayd etilgan bo'lib, bu bir yil avvalgi ko'rsatkich bilan solishtirganda 3 foizga ko'p. 2020–2024-yillarda har yili o'rtacha 90 ming nafar ayol homiladorlik va tug'ilish ta'tilini olib, iqtisodiy faol bo'lmagan aholi safiga qo'shilgan. Shuningdek, 2022-yilda oltmish yoshdan oshgan shaxslar 3,2 milliondan ziyod kishini tashkil etgan, bu mamlakatda keksalarni parvarishlashning o'rni ortib borayotganidan dalolat beradi" [14]. Bu kabi omillar ayrim xotin-qizlarni bandlik yoki kasbga tayyorlash dasturlariga jalb qilishda to'sqinlik qilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatda ayollar tadbirkorligini har tomonlama rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu borada xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan hududiy loyihalar ayollar tadbirkorligining kengayishiga muhim hissa qo'shmoqda. Xususan, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) bilan hamkorlikda respublikadagi barcha hududlarda qishloq xo'jaligi sohasida iqtisodiy tizimni yanada chuqur isloh qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va uni qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirish, qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, ayniqsa, turizm va hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Ushbu hamkorlik jarayoni ikki bosqichli bo'lib, birinchi bosqich Farg'ona vodiysida qishloq tadbirkorligini rivojlantirish loyihasi bo'lsa, ikkinchi bosqich qolgan hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish loyihasi hisoblanadi.

XTTB bilan hamkorlikning birinchi bosqichida "Farg'ona vodiysida qishloq tadbirkorligini rivojlantirish" loyihasi amalga oshirildi. "Ushbu loyihaning umumiy qiymati 300,6 mln. AQSh dollari bo'lib, shundan O'zbekiston Respublikasining ulushi 100,6 mln. AQSh dollari, shu jumladan soliq va bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar berish, investitsiya davrida moliyaviy xarajatlarni to'lash shaklidagi ulushi 64 mln. AQSh dollari va loyiha ishtirokchilarining (benefitsiarlar) ulushi 36,6 mln. AQSh dollari ekvivalentini tashkil etgan" [15]. Ushbu loyihaga ajratilgan mablag'lar Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari uchun kredit va investitsion mablag'lar ko'rinishida yo'naltirildi hamda qulay biznes muhiti yaratildi. Natijada ushbu hududlarda ayollar tomonidan tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni oshdi, mavjud tadbirkorlik faoliyatlari kengaytirildi va ishlab chiqarish jarayonlari har tomonlama modernizatsiya qilindi.



Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarida aholi zich joylashgan bo'lib, mehnat resurslarining katta qismini ayollar tashkil etadi. Bu esa ayollar uchun yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda o'z tadbirkorlik faoliyatlarini boshlashi uchun yaxshi imkoniyatni taqdim etdi. Ushbu loyiha 2019–2025-yillarga mo'ljallangan bo'lib, bu loyiha uchta komponentni qamrab oladi. Birinchi komponent tadbirkorlikni rivojlantirish komponenti bo'lib, o'z ichiga murabbiylik va biznes-inkubatsiya, qishloq xo'jaligi tadbirkorlari uchun, ayniqsa, tadbirkor ayollar uchun biznes-inkubatsiya markazlarini qo'llab-quvvatlash hamda klasterlar, ishlab chiqarish va sotish zanjirlarini yaratish kabi jarayonlarni qamrab oladi. Birinchi komponentni amalga oshirish uchun 15 mln. AQSh dollari yo'naltirilgan. Loyihaning ikkinchi komponenti moliyalashtirish jarayoni bo'lib, bunda qishloq joylarda mikro, kichik va o'rta korxonalarini moliyalashtirish uchun 167 mln. AQSh dollari yo'naltirilgan. Uchinchi komponent loyihani boshqarish va muvofiqlashtirish jarayoni bo'lib, bu jarayonda loyihani samarali boshqarish va ko'zda tutilmagan xarajatlarga umumiy 18 mln. AQSh dollari yo'naltirilgan. Ushbu loyihaning rejali va tartibli amalga oshirilishi natijasida bugungi kunda ushbu hududlarda tadbirkorlar soni, ayniqsa, tadbirkor xotin-qizlar soni loyihadan oldingi davrga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

XTTB bilan hamkorlik asosida tashkil etilgan qishloq tadbirkorligini rivojlantirish loyahasining ikkinchi bosqichi mamlakatning qolgan 10 ta viloyatida 2025–2026-yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. “Ushbu loyihaning umumiy qiymati 246,8 mln. AQSh dollari miqdorida bo'lib, shundan O'zbekiston Respublikasining ulushi 200 mln. AQSh dollari, 3 mln. AQSh dollari soliq va bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar berish hamda loyiha ishtirokchilarining ulushi 43,8 mln. AQSh dollari ajratilishi belgilangan” [16].

Ushbu hamkorlik orqali kredit liniyalari orqali moliyalashtiriladigan loyihalarga jami 189,8 mln. AQSh dollari miqdoridagi mablag'lar XTTB tomonidan yo'naltirilishi belgilangan. Ushbu dasturning asosiy maqsadlaridan biri chekka hududlardagi ayollarni tadbirkorlik bo'yicha qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ayniqsa, mamlakatning janubiy hududlari hisoblangan Surxondaryo va Qashqadaryo, shuningdek, Samarqand viloyatlarida umumiy 4000 nafar xotin-qizlar tadbirkorlik sohasi bo'yicha o'qitilishi belgilangan. Xususan, Surxondaryo viloyatida umumiy 1000 nafar xotin-qizlar tadbirkorlik bo'yicha o'qitilishi belgilangan bo'lib, shundan 600 nafar 30 yoshdan oshgan ayollar qamrab olinishi ko'zda tutilgan. Ushbu dastur doirasida ayollar tadbirkorligiga 400000 AQSh dollari miqdoridagi grantlar ajratilishi maqsad qilingan hamda kamida 40 ta tadbirlar, seminar va forumlar o'tkazilishi belgilangan.

Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida ham mos ravishda ushbu dastur doirasida 1500 nafardan ayollar tadbirkorlik bo'yicha o'qitilishi, shundan har birida 900 nafari 30 yoshdan oshgan ayollar bo'lishi belgilangan. Ayollarni tadbirkorlikka o'qitish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ikkita viloyatda ham kamida 60 ta tadbirlar va o'quv kurslari o'tkazilishi ko'zda tutilgan hamda ushbu viloyatlarga ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun umumiy qiymati 600000 AQSh dollari miqdoridagi grantlar ajratilishi ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda qishloq tadbirkorligini rivojlantirish loyahasining ayollar tadbirkorligini rivojlantirish yo'nalishi loyihada ko'rsatilgan barcha hududlarda jadal olib borilmoqda. Ushbu ayollar tadbirkorligini rivojlantirish yo'nalishi orqali chekka hududlardagi ayollarda ham tadbirkorlik sohasi bo'yicha bilim va ko'nikmalar shakllanib, ular ham o'z tadbirkorlik faoliyatlarini boshlashlari uchun yaxshi imkoniyatga ega bo'lmoqda. Ushbu loyihalarni amalga oshirishda loyiha koordinatori va loyihani amalga oshirish jamoasi a'zolari tomonidan taqdimotlar, amaliy tavsiyalar orqali o'qitilib, umumiy o'qitilayotgan ayollarning 80 foizi o'z tadbirkorligini yo'lga qo'yishi belgilangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda ayollar tadbirkorligi asosan kichik biznes yo'nalishida jadal rivojlanayotganligini ayollar ko'proq mikrofirmalar va kichik korxonalarini tashkil etayotganidan ko'rish mumkin. Bu turdagi tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy jarayonlarga tez moslashuvchanligi va bozor talablariga tezkor javob berishi bilan izohlanadi. Mamlakatda so'nggi yillarda tadbirkor xotin-qizlar soni kundan-kunga ortib, ularning jamiyatdagi mavqeyi mustahkamlanib bormoqda.

Shu bilan birgalikda tadbirkorlik sohasida ayollar uchun yaratilayotgan imkoniyatlarni yanada kengaytirish istiqbollari mavjud bo'lib, ushbu jarayonlar asosan moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, axborot va maslahat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda boshqa bir qancha yo'nalishlarni takomillashtirish bilan bog'lanadi. So'nggi yillarda davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tashkiliy va iqtisodiy tomondan qo'llab-quvvatlovlar natijasida ushbu yo'nalishlarda ijobiy natijalarga erishilmoqda. Umuman olganda, ayollar tadbirkorligi mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etib, aholi orasida bandlikni ta'minlash, oilaviy daromadlarni yaxshilash hamda hududiy rivojlantirishni ta'minlovchi asosiy bo'g'inlardan biri sifatida shakllanib bormoqda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Hossain Madhobi "Exploring the development of women's entrepreneurship through collective institutional shaping; A thesis submitted in partial fulfilment of the requirements of the University of Brighton for the degree of Doctor of Philosophy. - 2023 May. pp.371. PhD_thesis_Final_version_Madhobi_Hossain.pdf

Klare Brindley "Barriers to women achieving their entrepreneurial potential: Women and risk", International Journal of Entrepreneurial Behavior and research. April 2005. Vol.11 Iss 2, pp144-161

Helena Ahl "Why Research on Women Entrepreneurs needs new directions", Entrepreneurship: Theory & Practice, 30(5): pp595-621. (PDF) Why Research on Women Entrepreneurs Needs New Directions

Gary S. Becker "Family economics and macro behavior" The AMERICAN ECONOMIC REVIEW, Copyright 2001. -13 p.

Бабаева Л.В. Деловая сила "слабого пола"/Л.В.Бабаева, А.Е.Чирикова//Эко. - 1996.-№5(263).-с.123-132.

Alimpieva A. V. Women's entrepreneurship in the Belarusian and Russian public discourse // PRIMO ASPECTU. 2017. № 4 (32). P. 19–30. [Alimpieva A. V. Zhenskoe predprinimatel'stvo v belorusskom i rossiyskom publicnom diskurse // PRIMO ASPECTU. 2017. № 4 (32). S. 19–30] – (In Rus.)

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>

O'zbekiston Respublikasida Ayollar tadbirkorligi bo'yicha moliyaviy kodeksni joriy etish milliy nizomi. URL: https://cbu.uz/upload/medialibrary/c25/s288i4t6aqb2ndgfkogxt36l3kxppedy/Nizon-We_fi-code_Uzbekiston.pdf

O'zbekiston Milliy axborot agentligi. https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-ayollar-tadbirkorligini-qollab-quvvatlash-we-finance-code-doirasidagi-yutuqlar_820616

https://uza.uz/oz/posts/ayollar-tadbirkorligiga-berilgan-kreditlar-ulushi-oshmoqda_763828

<https://www.sirstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/10970-tadbirkor-ayollar-rahbarligidagi-kichik-korxonava-mikrofimalar-tomonidan-asosiy-kapitalga-kiritilgan-investitsiyalar>

<https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/56882-ayollar-rahbarligidagi-kichik-korxonava-mikrofimalar-tomonidan-asosiy-kapitalga-kiritilgan-investitsiyalar>

O'zbekistonda ayollar tadbirkorligi: tahlili va tavsiyalar. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-04/report_women_entrepreneurship_in_uzbekistan_uzb_uz.pdf

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-iyuldagi "Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida "Farg'ona vodiysida qishloq tadbirkorligini rivojlantirish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4399-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-4430287>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-iyuldagi "Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki hamda Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida "Qishloq tadbirkorligini rivojlantirish-2-faza" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-317-son qarori // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6110836>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>